



# QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XIZMATLAR SOHASI STATISTIKA BO'LIMI



2024- yil  
yanvar-mart



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ -5113- son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-mart oylarida)

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi – 66,1%**

**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi -  
1490,4  
ming so'm**


**Xizmatlar sohasidagi  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi – 67,2%**



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.



## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-aprel holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart oylarida)




## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- aprel holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

15 846

2023

17 842

2022

17 046

2021

14 287

2020

11 051

Soni, birlikda

2024

670

2023

1015

2022

907

2021


1124

2020

627


## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-mart oylarida)




## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024- yil yanvar-mart oylarida)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissi

(2024- yil yanvar-mart oylarida)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2024- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart oylarida)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati<sup>1)</sup></b>	<b>5 319,0</b>	<b>100,0</b>	<b>113,9</b>
Qarshi shahar	1441,3	27,1	120,1
Shahrisabz shahar	242,0	4,6	114,7
G'uzor tumani	217,4	4,1	110,9
Dehqonobod tumani	153,9	2,9	110,7
Qamashi tumani	308,6	5,8	109,6
Qarshi tumani	326,0	6,1	111,0
Koson tumani	375,9	7,1	113,9
Kitob tumani	357,4	6,7	112,0
Mirishkor tumani	246,6	4,6	110,2
Muborak tumani	344,2	6,5	113,0
Nishon tumani	208,4	3,9	111,7
Kasbi tumani	228,8	4,3	110,3
Ko'kdala tumani	83,7	1,6	112,6
Chiroqchi tumani	177,3	3,3	114,1
Shahrisabz tumani	336,4	6,3	112,0
Yakkabog' tumani	271,0	5,1	110,4

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar-mart oylarida)



### Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart oylarida)


■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Qarshi shahar	4864,3	117,4%
Shahrisabz shahar	1640,7	112,8%
G'uzor tumani	976,3	108,5%
Dehqonobod tumani	962,7	108,5%
Qamashi tumani	1050,3	107,3%
Qarshi tumani	1194,6	108,4%
Koson tumani	1201,7	111,2%
Kitob tumani	1265,1	109,8%
Mirishkor tumani	1900,2	107,8%
Muborak tumani	3677,8	111,0%
Nishon tumani	1247,1	109,0%
Kasbi tumani	1072,0	108,0%
Ko'kdala tumani	442,2	109,4%
Chiroqchi tumani	660,0	111,0%
Shahrisabz tumani	1428,6	110,1%
Yakkabog' tumani	957,4	108,2%



## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar –mart oylarida)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **66,1** foizni, shu jumladan, **3514,7** mlrd so'm hajmi kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tashkil etdi.



 Hajmi, mlrd. so'mda
  O'sish sur'ati

### Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-mart oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Qarshi shahar	536,8	+1,7%
Shahrisabz shahar	111,7	+11,7%
G'uzor tumani	113,0	+13,0%
Dehqonobod tumani	112,0	+12,0%
Qamashi tumani	110,4	+10,4%
Qarshi tumani	105,4	+5,4%
Koson tumani	114,4	+14,4%
Kitob tumani	112,8	+12,8%
Mirishkor tumani	111,1	+11,1%
Muborak tumani	110,9	+10,9%
Nishon tumani	114,9	+14,9%
Kasbi tumani	116,8	+16,8%
Ko'kdala tumani	113,7	+13,7%
Chiroqchi tumani	116,2	+16,2%
Shahrisabz tumani	113,1	+13,1%
Yakkabog' tumani	108,6	+08,6%

 Hajmi, mlrd. so'mda
  O'sishi



## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-mart oylarida)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>5319,0</b>	<b>100,0</b>	<b>113,9</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	258,8	4,9	113,5
Moliyaviy xizmatlar	1 019,2	19,2	128,0
Transport xizmatlari	1 080,6	20,3	108,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 024,4	19,3	110,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183,3	3,4	109,8
Savdo xizmatlari	1 552,5	29,2	107,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	123,0	2,3	106,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	239,4	4,5	152,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,0	1,5	116,9
Ijara xizmatlari	110,9	2,1	108,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	199,9	3,7	106,5
Shaxsiy xizmatlar	192,8	3,6	108,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,4	1,4	131,2
Boshqa xizmatlar	208,2	3,9	114,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (2024- yil yanvar-mart oylarida)

**2024-yilning yanvar-mart** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **83,6** foizni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sish sur'ati

Qarshi shahar	194,3	
Shahrisabz shahar	35,0	
G'uzor tumani	64,8	
Dehqonobod tumani	33,9	
Qamashi tumani	113,2	
Qarshi tumani	111,1	
Koson tumani	161,0	
Kitob tumani	160,4	
Mirishkor tumani	81,4	
Muborak tumani	104,6	
Nishon tumani	59,9	
Kasbi tumani	105,8	
Ko'kdala tumani	30,3	
Chiroqchi tumani	82,4	
Shahrisabz tumani	92,2	
Yakkabog' tumani	122,2	

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ● O'sishi

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

### Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart oylarida)




Savdo xizmatlari umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **12,5** foizni yoki **194,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-mart** oyiga nisbatan Qashqadaryo viloyatida **117,1** % yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,8** foiz.

Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **182,0** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **108,2** foizni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024- yil yanvar-mart oylarida)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar-mart oylarida)

Qarshi shahar	181,9	+8,2%
Shahrisabz shahar	26,7	+1,1%
G'uzor tumani	45,0	+20,6%
Dehqonobod tumani	35,5	+18,1%
Qamashi tumani	68,2	+3,2%
Qarshi tumani	85,4	+1,7%
Koson tumani	101,6	+10,1%
Kitob tumani	75,9	+20,3%
Mirishkor tumani	90,9	+7,8%
Muborak tumani	68,7	+4,4%
Nishon tumani	58,4	+8,4%
Kasbi tumani	44,2	+0,2%
Ko'kdala tumani	18,5	+13,4%
Chiroqchi tumani	19,3	+9,1%
Shahrisabz tumani	105,7	+15,2%
Yakkabog' tumani	54,6	+6,5%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2024- yil yanvar-mart oylarida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati


## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart oylarida)

Qarshi shahar	530,1
Shahrisabz shahar	80,1
G'uzor tumani	28,0
Dehqonobod tumani	18,3
Qamashi tumnai	27,4
Qarshi tumani	26,2
Koson tumani	32,6
Kitob tumani	34,9
Mirishkor tumani	24,1
Muborak tumani	60,1
Nishon tumani	17,6
Kasbi tumani	20,4
Ko'kdala tumani	5,6
Chiroqchi tumani	23,0
Shahrisabz tumani	63,9
Yakkabog'tumani	26,9

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-mart oylarida)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **52,0** foizni yoki **530,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan Qarshi shahrida yuqori o'sish sur'ati **139,5** foizni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

2024- yilning yanvar-mart oyiga ularning ulushi 93,2 foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024-yil yanvar-mart oylarida)



2020

2021

2022

2023

2024



Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sish sur'ati

## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-mart oylarida)

Qarshi shahar	43,0	+23,4%
Shahrisabz shahar	15,6	+16,9%
G'uzor tumani	13,9	+5,1%
Dehqonobod tumani	10,1	+5,5%
Qamashi tumani	17,9	+8,7%
Qarshi tumani	17,5	+14,9%
Koson tumani	18,6	+4,3%
Kitob tumani	18,6	+4,3%
Mirishkor tumani	9,2	+6,7%
Muborak tumani	7,9	+13,6%
Nishon tumani	11,6	+12,5%
Kasbi tumani	13,1	+11,9%
Ko'kdala tumani	10,0	+13,8%
Chiroqchi tumani	18,6	+19,6%
Shahrisabz tumani	13,9	+17,3%
Yakkabog' tumani	19,6	+21,5%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Hajmi, mlrd.so'mda

● O'sish

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar-mart oylarida)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yilning yanvar- mart oyida ulushi 4,5 foizni tashkil etdi.**



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-mart oylarida)






## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-mart oylarida)

78,0

### 2024-yilning yanvar-

mart oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 1,5 foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-mart oylarida)

Qarshi shahar	44,8	+17,9%
Shahrisabz shahar	5,1	+3,2%
G'uzor tumani	0,6	+12,9%
Dehqonobod tumani	0,2	+5,5%
Qamashi tumani	1,9	+19,5%
Qarshi tumani	0,9	+5,9%
Koson tumani	0,7	+13,8%
Kitob tumani	9,1	+9,5%
Mirishkor tumani	1,4	+8,5%
Muborak tumani	3,9	+92,0%
Nishon tumani	0,4	+2,3%
Kasbi tumani	1,1	+8,8%
Ko'kdala tumani	0,1	+9,6%
Chiroqchi tumani	0,8	+12,4%
Shahrisabz tumani	4,6	+12,6%
Yakkabog' tumani	2,4	+13,5%


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi




## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024-yil yanvar-mart oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **97,1** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-mart oylarida)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


## 2024- yilning

yanvar-mart oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 92,6 foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (2024-yil yanvar-mart oylarida)




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-mart oylarida)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024-yil yanvar-mart oylarida)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-mart oyida, mlrd. so'mda)

Qarshi shahar	13,2
Shahrisabz shahar	2,9
G'uzor tumani	7,9
Dehqonobod tumani	9,3
Qamashi tumani	13,9
Qarshi tumani	7,4
Koson tumani	8,5
Kitob tumani	8,9
Mirishkor tumani	5,3
Muborak tumani	3,3
Nishon tumani	4,6
Kasbi tumani	6,7
Ko'kdala tumani	2,3
Chiroqchi tumani	2,7
Shahrisabz tumani	6,8
Yakkabog' tumani	7,1

2020- yilning yanvar-martga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **47,8** mlrd. so'mga oshib, **110,9** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yilning yanvar-mart** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **79,3** foizni tashkil etdi.



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(2024-yil yanvar-mart oylarida)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 21,4 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-mart oylarida)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sish

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-mart oylarida)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart oylarida, mlrd. so'mda)



**2020-yilning yanvar- martiga** nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **40,1** mlrd. so'mga oshib, **72,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **85,9** foizni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
Tel: (75)-221-44-32

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.